



KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKDA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH AHAMIYATI

Yoqubjanov Muminmirzo

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0009-1649-1717

mumin20010707@gmail.com

PhD Erkinxojiev Ismoiljon

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0001-8270-3348

ismoiljon.erkinkhojiev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tadbirkorlik subyektlarining mustaqilligini belgilaydigan huquq va erkinliklarning ta'minlanishi, yetarli moliyaviy manbalarga, umumiy tijorat qonunchiligi, soliq bo'yicha imtiyozlarning mavjud bo'lishi kabilar tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim shart-sharoitlari ko'rib chiqiladi. Shunga ko'ra barcha mamlakatlarda xususiy tadbirkorlikning hayotiy faoliyati barqarorligini ta'minlovchi samarali dastak va mexanizmlar yaratiladi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, raqobatni rivojlantirish va iste'mol bozorini to'ldirish, moliyaviy resurslar, imkoniyatlardan foydalanish, innovatsiya, rag'batlar, tadbirkorlik subyektlari.

ВАЖНОСТЬ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРОДУКЦИИ В МАЛОМ БИЗНЕСЕ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ

Ёкубжонов Муминмирзо

Ташкентский государственный экономический университет

PhD Эркинхожиев Исмоилжон

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье рассматриваются такие важные условия развития предпринимательства, как обеспечение прав и свобод, определяющих независимость хозяйствующих субъектов, доступ к достаточным финансовым ресурсам, общее торговое законодательство и наличие налоговых льгот. Соответственно, во всех странах создаются эффективные механизмы и механизмы для обеспечения устойчивости жизненно важной деятельности частного предпринимательства.

Ключевые слова: малый бизнес, развитие конкуренции и насыщение потребительского рынка, финансовые ресурсы, использование возможностей, инновации, стимулы, предпринимательские структуры.

THE IMPORTANCE OF INCREASING PRODUCT COMPETITIVENESS IN SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP

Yoqubjanov Muminmirzo

Tashkent State University of Economics

PhD Erkinxojiev Ismoiljon

Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article examines such important conditions for entrepreneurship development as ensuring the rights and freedoms that define the independence of business entities, access to sufficient financial resources, common trade legislation, and the availability of tax incentives. Accordingly, all countries are creating effective mechanisms and mechanisms to ensure the sustainability of the vital activity of private enterprise.*

Keywords: *small business, development of competition and saturation of the consumer market, financial resources, use of opportunities, innovation, incentives, entrepreneurial structures.*

Kirish.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining asosi bo'lgan xususiy mulk ustuvorligini mustahkamlaydigan barqaror qonunchilik bazasi yaratilganini qayd etish zarur. O'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadini oshirishning muhim omili bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bo'yicha qulay ishbilarmonlik muhiti hamda ishonchli huquqiy kafolatlar yaratildi.

Yurtimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning asosiy omillaridan biri innovatsiyalardir. Innovatsion texnologiyalar yordamida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini chuqur qayta tuzish va ish unumdorligini yanada oshirish mumkin. Ma'lumki, bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi nafaqat milliy iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini jadallashtirishda, balki bugungi kun uchun dolzarb hisoblangan aholini ish bilan ta'minlash va turmush darajasini oshirish masalalarini hal etishda ham etakchi o'rin tutmoqda. Kichik biznesning ixcham va harakatchanligi, bozor kon'yunkturasi o'zgarishlari va iste'molchilar ehtiyojlariga tez moslasha olishi uni jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish va inqirozdan keyin iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror rivojlantirish sharoitida yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadini oshirish borasida eng qulay va maqbul vositaga aylantirmoqda. Kichik biznesning ixcham va harakatchanligi, bozor kon'yunkturasi o'zgarishlari va iste'molchilar ehtiyojlariga tez moslasha olishi uni jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish va inqirozdan keyin iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror rivojlantirish sharoitida yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadini oshirish borasida eng qulay va maqbul vositaga aylantirmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Biznes va tadbirkorlik tushunchalarining hozirgi ma'nosida XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida ilk bor ingliz iqtisodchisi Richard Kantilon qo'llagan edi. Uning fikricha, tadbirkor tavakkalchilik sharoitida faoliyat yurituvchi kishidir. Shu boisdan u er va mehnat omilini iqtisodiy farovonlikni belgilab beruvchi boylik manbai deb bilgan. Keyinchalik, XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshida mashhur franuuz iqtisodchisi Sey (1767- 1832) «Siyosiy iqtisod risolasi» kitobida (1803.) tadbirkorlik faoliyatini ishlab chiqarishning uch mumtoz omillari yer, kapital, mehnatning yaxlitligi deb ta'riflagan edi. O'zbekiston olimlaridan Boltabayev, Qosimova, Ergashxodjayeva, G'oyibnazarov, Samadov, Otajonov asarlarida kichik biznes sohasining iqtisodiyotdagi ahamiyati uning iqtisodiyotda raqobat muhitini ta'minlash, yirik korxonalar uchun mahsulot va xizmatlar yetkazib berish, yangi ish o'rinlarini yaratish va


ikkilamchi bandlikni ta'minlash, bozor tizimining moslashuvchanligini oshirish, ilmiy-texnikaviy inqilobni jadallashtirish, resurslarni ishlab chiqarishga safarbar etish; soliq tushumlari hajmining o'sishini ta'minlash, aholi daromadlari darajasini barqarorlashtirish kabi omillar bilan belgilanishini tadqiq etgan. Yusupov Bozor segmentatsiyasi va tovarni bozorda pozitsiyalashtirish masalalari, shuningdek, tovar, narx, sotish va kommunikatsiya siyosatlari, raqobat va raqobatbardoshlik masalalari keng bayon etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot metodologiyasining asosini biznes va tadbirkorlikni ta'minlash masalalari bo'yicha tadqiqot olib borgan yetakchi mahalliy va xorijiy iqtisodchilarning ishlari tashkil etadi. Nazariy kuzatish, ilmiy abstraksiya va qiyosiy tahlil, statistik, monografik kuzatuv va boshqa tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ma'lumki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jahon mamlakatlari tajribasida o'zining yuksak natija va muvaffaqiyatlari bilan mustahkam o'rin egallagan bo'lib, aksariyat xalqlarda uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 60-70 foizni tashkil etadi. Kichik biznesning rivojlanishi iqtisodiyotdagi jo'shqinlik va samarali raqobat muhiti uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, iste'mol sektorini kengaytirish orqali talabni rag'batlantirish, iste'mol bozorini tovar va xizmatlar bilan to'ldirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, byudjet tushumlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shunga ko'ra, ko'plab rivojlangan davlatlar kichik biznes faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga intiladi. Iqtisodiy o'sish sur'ati iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan ijobiy dinamika bilan bog'liqdir. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi YAIM umumiy hajmining 95,6 % ni tashkil etdi va 7,7 % ga o'sdi (YAIM mutlaq o'sishiga ta'siri 7,4 foiz punktni tashkil etdi). Mahsulotlarga sof soliqlarning YAIM tarkibidagi ulushi 4,4 % ni tashkil etdi va 7,4 % darajasida o'sish qayd etildi (YAIM mutlaq o'sishiga ta'siri 0,3 f.p.). 2025- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, YAIM tarkibida katta bo'lmagan o'zgarishlar kuzatildi. 2024- yilning mos davriga nisbatan YAIM (YAQQ) tarkibida xizmatlar sohasining ulushi 48,2 % dan 48,6 % ga, sanoatning ulushi 26,1 % dan 26,8 % ga va qurilishning ulushi 7,2 % dan 7,3 % ga oshdi. Shu bilan birga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 18,5 % dan 17,3 % ga kamaydi. 2025- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, sanoat tarmog'ida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi 472 729,7 mlrd so'mni tashkil etdi va 2024- yilning mos davri bilan taqqoslaganda 6,8 % ga o'sish kuzatildi. Ushbu tarmoqdagi ijobiy dinamika, asosan ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 7,7 % ga ijobiy o'sishi hisobiga ta'minlandi.



1-rasm. Savdo tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida savdo tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibida eng katta ulushi chakana savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari)ga to'g'ri keldi va 54,7 % ni tashkil etdi. Ulgurji savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari)ning ulushi 32,9 % ni, avtotransport vositalarining ulgurji va chakana savdosi hamda ularni ta'mirlashning ulushi 12,4 % ni tashkil qildi (1-rasm).

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik aholi orasida ish yuritish va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, uning bozor munosabatlariga moslashganlik darajasini oshirishda potentsial samarali vositadir. U fuqarolarga nafakat o'z ishchi kuchi, balki o'z mulki, jumladan, ishlab chiqarishga mo'ljallangan mulk egasi bo'lishiga imkon yaratib, o'rta sinfjamiyatning progressiv taraqqiyotini ta'minlashga qodir, demokratiya va ijtimoiy barqarorlikdan manfaatdor ijtimoiy qatlamning shakllanishi uchun asos yaratadi. Kichik biznes butun iqtisodiyotning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. U iste'mol talabining o'zgarishlariga hammadan tez moslashadi, iqtisodiy vaziyatning tebranishlariga muvofiq tarzda o'z faoliyati ixtisosini tez o'zgartira oladi. Shuningdek, iqtisodiyotning hududiy tuzilmasini yaxshilaydigan tadbirkorlik bilan shug'ullanish, ish bilan band bo'lish va daromad olishga, ishi va shaxsiy hayotini yaxshilashga, o'z kobilyati va iste'dodini namoyon qilishga imkon yaratadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAIMni ishlab chiqarish quyidagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlar bilan ifodalanadi (1-jadval).

1-jadval

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi ichki mahsulot hajmi

Ko'rsatkich	Hajmi mlrd. so'm		O'sish sur'atlari(%)	YaIM o'sishidagi hissasi, f. p. da
	2024 (yanvar-dekabr)	2025 (yanvar-dekabr)		
YAIM – jami	1 535 431,7	1 849 650,0	107,7	x
shu jumladan:				
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	1 475 010,2	1 768 139,4	107,7	7,4
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	272 224,4	306 294,2	104,4	0,8
sanoat	384 377,6	472 729,7	106,8	1,7
qurilish	107 113,9	129 224,1	114,0	1,0
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	176 808,3	215 494,4	112,0	1,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	115 533,9	149 508,8	114,5	1,1
boshqa xizmat tarmoqlari	418 952,1	494 888,2	105,4	1,4
Mahsulotlarga sof soliqlar	60 421,5	81 510,	107,4	0,3

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish amalga oshirayotgan islohotlarimizning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Chunki, kichik biznes rivojlangan jahon iqtisodiyotining tarkibini tashkil etuvchi muhim tarmoq bo'lib hisoblanadi. Uning faoliyati nafaqat kichik biznesning, balki butun mamlakat iqtisodiyotining muvaffaqiyatli rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Bundan tashqari ichki bozorning iste'mol tovarlari bilan to'ldirilishi va aholiga turli xizmatlar ko'rsatilishi, eksport salohiyatining o'sishi, aholining ish bilan ta'minlash va uning real daromadlarini ko'paytirish masalalarining yechimi ham ana shu tarmoqning nechog'lik barqaror rivojlanishiga bog'liqdir.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kichik biznes va tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotiga qo'shadigan hissasini oshirilishini, kichik sanoat zonalarining yaratilishi, investitsion muhit va raqobat muhitini yaxshilanishi, kichik biznes bilan davlat-xususiy sherikchiligi doirasida davlat xaridlari hajmini kengaytirilishi, yirik va kichik korxonalar

o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlanishi, innovatsiya jarayonlariga tadbirkorlik subyektlarini jalb qilish orqali ko'rishimiz mumkin. Shuni ham ta'kidlash joizki, yetarli eksport salohiyatiga ega bo'lgan, biroq ayni paytda yanada rivojlanish uchun yetarli darajada kapitalga ega bo'lmagan muvaffaqiyatli va istiqbolli kichik korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash katta ahamiyatga ega. Ushbu choratadbirlarlarni samarali kichik biznes sohasida ko'proq ish o'rnini yaratishga, jahon bozoriga kirish imkoniyatlarini oshirishga yordam berib, mamkakatni eksport salohiyatini oshirishga va aholi daromadlarini oshirishga imkon yaratadi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Gulnara Sh. (2022) "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiyotda tutgan o'rni" nomli maqolasi. "Academic Research in Educational Sciences" Volume 3 | Issue 5 | , 610-613. <https://cyberleninka.ru/article/n/kichik-biznes-va-xususiy-tadbirkorlikni-iqtisodiyotda-tutgan>

Qaror (2016) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi farmoni. <https://lex.uz/uz/>

Qaror (2017) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-avgustdagi "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasini tashkil qilish to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/uz/>

Qaror (2019) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2019-yil 13-avgustdagi PQ-4417-son qarori. <https://lex.uz/uz/>

Ruzmetov D.I. va Saidov M.D (2025) Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini imtiyozli kreditlar ajratish orqali rivojlantirish, "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali 2025-yil 5-son, 125-130. <https://iqtisodiyot.tsue.uz/journal/index.php/iit/>

Shodiyeva G. (2022). "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiyotda tutgan o'rni" Academic Research in Educational Sciences, Volume 3, Issue 5, 2022 Page 611. <https://ares.uz/en>

Umarov.T.M.(2024). Erkin iqtisodiy zonalarda tadbirkorlik faoliyatiga innovatsiyalar va investitsiyalarni rag'batlantirishda klaster yondashuvining o'rni. International conference of natural and social - humanitarian sciences. 1(1), 156-167. <https://acss.iafor.org>

Xalmatjanova G.D (2025) "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy - ijtimoiy va huquqiy asoslari" nomli maqolasi. "Innovations in Science and Technologies" ilmiy elektron jurnalining 2-soni, 228-235. <https://zenodo.org/records/15319318>